



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
<i>Allamurodov Elyor Tursun ugli</i>	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
<i>Dilrabo Jumanova</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
<i>Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi</i>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
<i>Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich</i>	
Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar	247
<i>Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi</i>	
Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools.....	250
<i>Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna</i>	
Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari	255
<i>Berdiyeva Dilnoza A'zamovna</i>	
Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv	258
<i>Charos Axmadova</i>	
STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	262
<i>Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich</i>	
Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi	267
<i>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar	272
<i>Erimmetova Nafisa Bahromovna</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari	279
<i>Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi</i>	
Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	283
<i>Karimov Jaxongir Abdunabiyevich</i>	
Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili.....	287
<i>Madaminova Shaxodat Shomurotovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari.....	293
<i>Mahmudova Maftuna Aktam qizi</i>	
Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study	297
<i>Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li</i>	
Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi.....	301
<i>Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza</i>	
Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari.....	305
<i>Muxitdin Nazarov</i>	
10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ...	310
<i>Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya.....	314
<i>Qurbonova Gulmira Alisher qizi</i>	



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчехра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project)	368
Khurshida Kuchkarova	



YANGI O'ZBEKISTONDA O'QITUVCHI MAQOMINING HUQUQIY KAFOLATLARI VA PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGI

Menlibayeva Azima Oralbayevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
 katta o'qituvchisi

Oralbayeva Aziza

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari jarayonida pedagog xodimlarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy himoyasini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, jumladan,

“Pedagogning maqomi to'g'risida”gi Qonunning o'qituvchilar faoliyatidagi erkinlikni ta'minlash va ularni majburiy mehnatdan himoya qilishdagi huquqiy kafolatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchi huquqlarining qonuniy ta'minlanishi bevosita pedagogik faoliyat samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, pedagog maqomi, huquqiy kafolatlar, pedagogik faoliyat samaradorligi, ta'lim sifati, o'qituvchi huquqlari, majburiy mehnat, ta'lim islohotlari.

Abstract: This article analyzes the issues of enhancing the social status of pedagogical staff, strengthening their legal status, and ensuring their socio-economic protection within the framework of educational reforms being implemented in New Uzbekistan.

Particular attention is paid to legislative acts adopted in recent years, including the Law “On the Status of a Pedagogue,” and its legal guarantees aimed at ensuring teachers’ professional freedom and protecting them from forced labor. The article provides a scientific and theoretical justification of how the legal protection of teachers’ rights influences the effectiveness of pedagogical activities and contributes to improving the quality of education.

Key words: New Uzbekistan, status of pedagogues, legal guarantees, effectiveness of pedagogical activity, quality of education, teachers’ rights, forced labor, educational reforms.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы повышения общественного статуса педагогических работников, укрепления их правового положения и обеспечения социальной и экономической защиты в условиях образовательных реформ, реализуемых в Новом Узбекистане. Особое внимание уделяется законодательным актам, принятым в последние годы, в частности Закону Республики Узбекистан.

“О статусе педагога”, а также его правовым гарантиям, направленным на обеспечение профессиональной свободы учителей и защиту их от принудительного труда. В статье научно и теоретически обосновывается влияние правового обеспечения прав педагогов на эффективность педагогической деятельности и повышение качества образования.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, статус педагога, правовые гарантии, эффективность педагогической деятельности, качество образования, права учителя, принудительный труд, образовательные реформы.

KIRISH

Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans paydevorini mustahkam shakllantirishning strategik yo'nalishlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy asosi bevosita zamonaviy ta'lim tizimi bilan belgilanadi. Jamiyatda mustaqil va kreativ fikrlaydigan, jahon andozalari darajasidagi bilimlarni o'zlashtirgan va raqobatbardosh yosh avlodni tarbiyalash ta'lim tizimining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan pedagog xodimlarning professional tayyorgarligi va ularning ijodiy salohiyatiga tayanadi. Zero, har qanday davlatning taraqqiyot darajasi va intellektual salohiyati, birinchi navbatda, o'sha davlatda o'qituvchiga bo'lgan munosabat, uning jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy maqomi va kasbiy faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan o'lchanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub

islohotlarning mohiyati ham aynan pedagogning ijtimoiy nufuzini yuksaltirish va uning huquqiy himoyasini oliy darajaga ko'tarishdan iborat bo'lib qoldi.

Tarixiy tajriba va pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimidagi har qanday innovatsiya yoki kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, agar bevosita ijrochi bo'lgan o'qituvchining ijtimoiy erkinligi va huquqiy daxlsizligi ta'minlanmasa, kutilgan samarani bermaydi. Yaqin o'tmishda respublikamiz ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat unumdorligiga to'sqinlik qiluvchi bir qator jiddiy tizimli muammolar to'planib qolgan edi.

Xususan, o'qituvchilarning o'z kasbiy majburiyatlari va bevosita pedagogik funksiyalaridan tashqari bo'lgan majburiy mehnatga, turli xil hududiy obodonlashtirish ishlariga, qishloq xo'jaligi kompaniyalariga hamda o'zlariga aloqador bo'lmagan ommaviy tadbirlarga tizimli ravishda jalb qilinishi odatiy holga aylangan edi. Bu kabi salbiy holatlar o'qituvchining eng qimmatli resursi - darsga tayyorgarlik ko'rish va o'z ustida mustaqil ishlash vaqtini cheklab qo'ydi. Natijada maktablarda dars sifati keskin pasaydi va pedagog kasbining ijtimoiy nufuzi hamda jozibadorligi yo'qolishiga sabab bo'ldi.

Shu bilan birga, ta'lim tizimining haddan tashqari byurokratlashgani, ya'ni o'qituvchilardan o'nlab, hatto yuzlab sun'iy hisobotlar, tahliliy daftarlar, reja-jadvallar va qog'ozbozlik hujjatlarini yuritish majburiyatining yuklatilgani dars jarayonining rasmiyatchilikka aylanib qolishiga olib keldi. Pedagog o'quvchi bilan jonli muloqot qilish, uning ruhiy dunyosini tushunish yoki PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlari talablariga muvofiq o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish o'rniga, o'z vaqtini qog'ozlarni to'ldirishga sarflashga majbur bo'ldi. Ushbu salbiy omillar o'qituvchilar o'rtasida kasbiy charchash sindromining chuqurlashishiga, iqtidorli kadrlar va yosh mutaxassislarining xalq ta'limi tizimidan chiqib ketishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, zamonaviy pedagogik psixologiya qonuniyatlariga ko'ra, o'qituvchining ruhiy xotirjamligi va huquqiy himoyalanganligi uning kasbiy faoliyati samaradorligini ta'minlovchi fundamental omildir.

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat rahbariyati tomonidan ushbu muammolarning chuqur anglangani va ularni bartaraf etishga qaratilgan qat'iy siyosiy iroda namoyon etilgani ta'lim tarixida yangi sahifa ochdi. Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida o'qituvchi maqomining Bosh Qonun darajasida mustahkamlanishi, pedagog mehnati daxlsizligining e'tirof etilishi davlatning ushbu sohaga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirdi. Huquqiy kafolatlarning bunday oliy darajada belgilanishi o'qituvchilarning nafaqat ijtimoiy mavqeyini oshirdi, balki ularning o'z kasbiga bo'lgan ishonchini, kasbiy g'ururi va mas'uliyat hissini ham bir necha barobar yuksaltirdi.

Biroq qonun hujjatlarining qabul qilinishi va huquqiy kafolatlarning belgilanishi amaliyotda o'z-o'zidan kutilgan samaradorlikka olib kelmaydi. Huquqiy normalarning ta'lim muassasalaridagi real pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir qilish mexanizmlari tizimli tahlil etishni taqozo qiladi. Hozirgi kunda ta'lim menejmenti va pedagogik yurisprudensiya tutashgan nuqtada yangi bir yo'nalish – maktab boshqaruvidagi huquqiy innovatsiyalar va riskologiya (tavakkalchilikni boshqarish) masalalari yuzaga kelmoqda. Ya'ni, qonuniy taqiqatlar mavjud bo'lishiga qaramay, hududiy boshqaruv organlari yoki maktab ma'muriyati darajasida eski byurokratik uslublarni saqlab qolishga urinish, innovatsiyalarga nisbatan ichki qarshilik va huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi kabi pedagogik risklar hali ham saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu tadqiqotning maqsadi va vazifalari Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomini belgilovchi huquqiy mexanizmlarning mazmun-mohiyatini ochib berish, ushbu kafolatlarning o'qituvchining kundalik pedagogik faoliyati unumdorligiga, uning darsga tayyorgarlik ko'rish motivatsiyasiga hamda yakuniy ta'lim sifatiga ta'sirini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada huquqiy kafolatlar daxlsizligini ta'minlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pedagogik-boshqaruv risklarini modellashtirish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Mazkur tadqiqot maktablarda sog'lom huquqiy va ma'naviy-psixologik muhitni yaratish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini huquqiy mezonlar asosida tartibga solish hamda maktab ta'limini raqamlashtirish sharoitida o'qituvchi muxtoriyatini ta'minlashning ilmiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotda ta'lim huquqi, pedagogik yurisprudensiya va ta'lim menejmenti sohasidagi xalqaro hamda milliy huquqiy hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimlilik, qonuniylik, tarixiy va mantiqiy izchillik hamda qiyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

O'qituvchilarning huquqiy himoyalanganlik darajasi va uning dars samaradorligiga ta'sirini baholashda milliy qonunchilik tizimidagi o'zgarishlar hamda xalqaro baholash standartlari (masalan, PISA va TIMSS so'rovnomalaridagi ijtimoiy-pedagogik ko'rsatkichlar) o'rganildi ^[1].

O'qituvchining ijtimoiy-huquqiy maqomi va uning pedagogik samaradorlikka ta'sirini tushunishda xalqaro olimlarning nazariy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimida riskologiya va o'qituvchilar erkinligi masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Jumladan, o'qituvchilarning kasbiy muxtoriyati (professional autonomy) va ularning ruhiy xotirjamligi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda o'z isbotini topgan ^[2].



Pedagog xodimlarning huquqiy maqomi va uning ta'lim sifati hamda dars samaradorligiga ta'sirini o'rganish zamonaviy pedagogika, ta'lim huquqi (educational law) va ta'lim menejmenti fanlarining dolzarb muammolari-dan biri hisoblanadi. O'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy daxlsizligi va uning kasbiy muxtoriyati (professional autonomy) muammosi ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur yo'nalishdagi nazariy qarashlarni tahlil qilishda, birinchi navbatda, xalqaro tajriba va BMT tashkilotlarining fundamental hujjatlariga murojaat qilish joiz. Xususan, YUNESKO va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan 1966-yilda qabul qilingan "O'qituvchilarning maqomi to'g'risida"gi tavsiyanomada o'qituvchining huquqiy va iqtisodiy barqarorligi ta'lim samaradorligini ta'minlovchi birlamchi poydevor ekanligi belgilangan^[1]. Ushbu hujjatda ta'kidlanishicha, o'qituvchining dars jarayonidan tashqari ishlarga jalb etilishi va ijtimoiy himoyasizligi bevosita o'quvchilarning bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda o'qituvchi maqomi va pedagogik samaradorlik masalalari ko'pincha ta'lim tizimidagi riskologiya va innovatsion menejment nuqtayi nazaridan o'rganiladi. G. Klass va R. Sander kabi g'arb olimlarining izlanishlariga ko'ra, maktab tizimidagi ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlik o'qituvchilarda kasbiy charchash (burnout) sindromini keltirib chiqaradi^[2].

Ularning ilmiy xulosalarida qayd etilishicha, pedagog o'z ustida ishlashga vaqt topa olmagan taqdirda, maktab ma'muriyati va boshqaruv tizimi har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyani joriy etishga urinmasin, tizim inqirozga yuz tutadi. Shuningdek, L. Darling-Hammond o'zining sermahsul tadqiqotlarida o'qituvchilarning kasbiy muxtoriyati (ya'ni dars berish uslubini erkin tanlash huquqi) yuqori bo'lgan mamlakatlarda o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi (PISA, TIMSS) natijalari sezilarli darajada yuqori bo'lishini ilmiy isbotlab bergan^[4].

Yangi O'zbekistonda ta'lim islohotlarining huquqiy asoslari tahlil qilinganda, mahalliy olimlarning ham ushbu yo'nalishdagi yondashuvlari shakllanib borayotganini ko'rishimiz mumkin. T. Saparbaev va P. Abdimuratovlarning tadqiqotlarida raqamlashtirilgan ta'lim muhitida pedagogik risklarni boshqarish hamda ta'lim menejmentida huquqiy innovatsiyalarni joriy etish masalalari chuqur tahlil etilgan^[5]. Mualliflar o'qituvchining daxlsizligi faqat qog'ozda emas, balki maktab ichki muhitida real institutga aylanishi lozimligini, rahbar kadrlar tomonidan eski boshqaruv uslublaridan voz kechish (innovatsiyalarga qarshilikni sindirish) jarayoni pedagogik riskologiyaning obyektini ekanligini ta'kidlaydilar.

D. Gaipov o'z ilmiy ishlarida o'qituvchilarning ijtimoiy-huquqiy himoyasi hamda ularning innovatsion pedagogik faoliyatga motivatsiyasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni o'rgangan^[6]. Olimning fikricha, huquqiy kafolatlar o'qituvchida daxldorlik va barqarorlik hissini shakllantirib, ijodiy samaradorlikni bir necha barobar oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi tizimlilik, determinizm, qonuniylik, tarixiy va mantiqiy izchillik tamoyillariga tayanadi. Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlarini va uning amaliy samaradorligini o'rganishda quyidagi ilmiy-pedagogik va huquqiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

- 1. Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi:** O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 2024-yilda qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RB-901-sonli Qonuni va unga qadar mavjud bo'lgan qonunchilik normalari o'zaro qiyoslanib, o'qituvchilar erkinligining huquqiy kengayish dinamikasi o'rganildi.
- 2. Pedagogik monitoring va kontent-tahlil:** Maktablardagi qog'ozbozlik ko'rsatkichlari, elektron ta'lim tizimlariga (Kundalik/Emaktab) o'tish jarayonidagi byurokratik yuklamalarning kamayish darajasi va ularning dars sifatiga ta'siri monitoring qilindi.
- 3. Sotsiologik-pedagogik so'rovnoma (survey):** Pedagog xodimlarning huquqiy savodxonligi va ularning majburiy mehnatdan ozod etilganlik darajasini baholash maqsadida anonim so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomaning tarkibiy qismi PISA xalqaro baholash tizimining maktab muhiti va o'qituvchilarning kasbiy mamnuniyatini aniqlashga qaratilgan metodologik savollari andozasida ishlab chiqildi.
- 4. Pedagogik riskologiya va modellashtirish:** Ta'lim tizimini boshqarishda huquqiy normalarning buzilishi yoki eski byurokratik to'siqlarning saqlanib qolishi bilan bog'liq bo'lgan "boshqaruv risklari" modellashtirildi va ularni bartaraf etish mexanizmlari tizimlashtirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hisobotlari, statistika organlari ma'lumotlari hamda umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovnoma natijalari tashkil etadi. Metodologiyaning bunday kompleks yondashuvi muammoni faqat nazariy jihatdan emas, balki real pedagogik jarayonlar kesimida chuqur va xolis baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ilk bor o'qituvchilar huquqlarining alohida moddada belgilanishi hamda 2024-yilda qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RB-901-sonli Qonun soha rivojida tub burilish yasadi. Ushbu qonuniy hujjatlar orqali pedagoglarning huquqlari, majburi-

yalari, davlat tomonidan ularga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar aniq belgilab qo'yildi. Ayniqsa, o'qituvchilarni dars faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga, obodonlashtirish ishlariga jalb qilish, ulardan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hisobotlarni talab qilish qat'iy aniq taqiqlandi va buning uchun ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirildi.

Pedagogik faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy kafolatlarning mustahkamlanishi natijasida o'qituvchilarning o'z kasbiy majburiyatlariga ajratadigan vaqti 35-40 % gacha ko'paygan. Ortiqcha hujjatbozlikdan xalos bo'lgan o'qituvchi o'z ustida ishlashga, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga va o'quvchilar bilan individual ishlashga ko'proq imkoniyat topmoqda. Bu esa mamlakatimiz o'quvchilarining xalqaro baholash dasturlarida munosib ishtirok etishi uchun zamin yaratadi.

O'qituvchi maqomining qonuniy kafolatlanishi ta'lim sifatini oshirishning asosi bo'lsa-da, amaliyotda qonun normalarining to'liq ijrosini ta'minlashda hali ham muayyan to'siqlar va xavf-xatarlar (risklar) mavjud. Ayniqsa, hududlarda joylashgan ayrim ta'lim muassasalarida rahbar kadrlar tomonidan huquqiy innovatsiyalarga qarshilik ko'rsatish va eski boshqaruv uslublaridan voz kechmaslik holatlari uchramoqda. Bu esa ta'lim menejmentida "riskologiya" va risk-menejment tamoyillarini joriy etishni taqozo etadi [7].

Shu bilan birga, ta'lim muhitida o'qituvchiga nisbatan ota-onalar va o'quvchilar tomonidan salbiy bosim o'tkazish, maktablardagi bullying va pedagogning sha'niga daxl qilish holatlari hali butunlay barham topmagan. O'qituvchining huquqiy maqomi nafaqat davlat organlari tomonidan, balki keng jamoatchilik va ota-onalar tomonidan ham e'tirof etilishi hamda hurmat qilinishi lozim. Buning uchun jamiyatda umumiy huquqiy madaniyatni yuksaltirish talab etiladi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar bugun mutlaqo yangi bosqichga qadam qo'ydi. O'tgan davr mobaynida to'planib qolgan tizimli muammolar - pedagoglarning o'z vazifasidan tashqari majburiy mehnatga jalb etilishi, haddan ziyod byurokratik yuklama va hisobotbozlik kabi salbiy omillar ta'lim sifatiga jiddiy zarar yetkazayotgan birlamchi sabablar sifatida aniqlandi. Ushbu salbiy zanjirni uzish maqsadida o'qituvchi maqomini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash hamda maxsus "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish jamiyat hayotida tarixiy burilish yasadi.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar va empirik o'rganishlar huquqiy kafolatlarning mustahkamlanishi hamda bevosita maktabdagi pedagogik faoliyat samaradorligi o'rtasida uzviy va to'g'ri-dan-to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini to'liq isbotladi.

Pedagogning daxlsizligi va uning professional muxtoriyatining ta'minlanishi, birinchi navbatda, o'qituvchining eng qimmatli resursi bo'lgan - "vaqt" omilini o'ziga qaytarib berdi. Ortiqcha qog'ozbozlik va majburiy mehnatdan xalos bo'lgan o'qituvchi o'z darsiga sifatli tayyorgarlik ko'rish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa o'quvchilarning darsni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilabgina qolmay, mamlakatimiz ta'lim tizimining PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan intellektual poydevorni yaratadi. Shuningdek, huquqiy himoyalanganlik pedagoglar o'rtasida kasbiy mamnuniyat hissini oshirib, ularni ruhiy charchash (burnout) sindromidan himoya qiladi va sohaga iqtidorli yosh kadrlarning kirib kelishini jadallashtiradi.

Yangi O'zbekistonda o'qituvchiga berilgan huquqiy kafolatlar shunchaki ijtimoiy imtiyoz emas, balki mamlakatning strategik kelajagi va intellektual xavfsizligiga tikilgan eng samarali sarmoyadir. O'qituvchining jamiyatdagi qadri va daxlsizligi oliy darajada saqlanar ekan, u yaratgan ta'lim muhiti Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga qodir bo'lgan sog'lom va yetuk avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Pedagogning maqomi to'g'risida: O'RQ-901-son. - Toshkent, 2024. - 1-fevral.
2. UNESCO/ILO. Recommendation concerning the Status of Teachers. - Paris; Geneva, 1966. - P. 12-18.
3. Klass G., Sander R. Educational Management and Teacher Burnout: A Riskology Approach // Journal of Educational Studies. - London, 2022. - Vol. 14, No. 2. - P. 88-102.
4. Darling-Hammond L. Teacher Professional Autonomy and Student Achievement: International PISA Perspectives // Stanford Educational Policy Analysis. - California, 2021. - P. 45-61.
5. Saparbaev T., Abdimuratov P. Ta'lim menejmentida huquqiy innovatsiyalar va riskologiya muammolari // Pedagogik mahorat. - 2025. - № 3. - B. 45-52.
6. Gaipov D. Yangi O'zbekiston ta'lim islohotlarida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlari // Ilm-fan va innovatsiyalar jurnali. - 2026. - 4(2). - B. 112-119.
7. Kengesbayevich R. M. Traditions of Religious Pedagogy in the Study of Social Education // American Journal of Education and Learning. - 2025. - Vol. 3, No. 1. - P. 28-32.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.